

TASVIRIY SAN'ATDA NATYURMORT KOMPOZITSIYASIGA YORUGLIK VA RANG UYGUNLIGI

A.S.Arziev

Ilmiy rahbar: dotsent

D.P.Tursunbaeva

3-kurs talabasi

Qoraqalpoq davlat universiteti

ANNOTATSIYA O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, rasm chizish va tasvirlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishga alohida ahamiyat berish.

Kalit so'zlar: Natyurmort, san'at, yorug'lik, dunyo qarash.

Zamonaviy texnologiya bilimlarini va ko'nikmalarini egallash tasviriy san'at yo'nalishida tashkil qiladigan turli ko'rgazmalarga ijodiy ishlarni tayyorlashga keng zamin tayyorlaydi. O'quvchi oлgan tassurotlari orqali mustaqil kompozitsiya tuzib, ranglar uyg'unligini tanlab, o'z tasavvuri orqali muljallagan tasvirini ijodiy yondashgan holda yaratish imkoniga ega bo'ladi. Bularning hammasi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Ulardagi badiy estetik didini shakillantiradi. Ta'lim texnologiyasida asosiy e'tiborni dastlabki harakat obrazini shakllantirish metodiga qaratish lozim. Chunki, insonning har qanday ongli ravshdagi faoliyati ushbu harakatni bajarish metodikasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Talabalarni rasm chizishga o'rgatish mashg'ulotlari natyurmort ishlashdan boshlanadi. O'quv natyurmortlarini tuzishning tayyor retsepti va formulalari yo'q. Natyurmort frantsuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda asosan musavvir insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, kundalik turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, mevalar, qush va hayvon tulumlari va boshqalarni tasvirlaydi.

Bólajak tasviriy sańat óqituvchilarinibg kasbiy tayorgarligini amalga oshirish bilan shugullanuchi oliy óquv yurtlarida ushbu kasb egalarini taylorlashda talabalarga tabiat mabzaralarini, parranda-yu, xayvonlarni va inson qiyofasini tasvirlashda, natyurmort chizishga, amaliy sańat va arxitektura majmualarining maketlarini yaratishda, kitob va saxnalarni bezash kabi turli mashğulotlardan umumli foydalanib kelinmoqda.

Natyurmort san'ati o'zining go'zal va qadimiylar tarixiga ega. Natyurmort bizni bir necha asr avvalgi, o'sha davr uchun qadrli bo'lgan buyum va narsalar olamiga olib kiradi. U XVII asrda mustaqil janr sifatida shakllandı. Bunga qadar jonsiz predmetlardan tasvirlangan asarlar gollandcha «harakatsiz qo'yilma» deb yuritilar edi. Natyurmort rassom tomonidan savodli ishlanishi bilan birga buyumlarning materialligini ham mohirona ifodalay oлgan. Kompozitsiya qonuniyatlariga asoslanib tuzilgan natyurmortda, o'sha muhitning o'ziga xos narsa va buyumlari malakali rassom tomonidan o'zgasha uslubda jonli tasvirlanadi.

Yorug'likni to'g'ri tanlash rassom oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Natyurmotlardan turli sharoytlarda kuchsiz yorug'lik, qo'yilmaga qaratilgan shu'lada xona ichida, ustoxonada, ochiq



Impact Factor: 9.9

ISSN-L: 2544-980X

havoda, soya va quyoshda tasvirlash mumkin. Shuning uchun rassomlar qo'yilgan natyurmort jozibali va mazmunli ko'rinishi uchun yorug'likni qanday tushirish ustida izlanadilar. Natyurmort qo'yilmasini chiroyli tuzishda nafaqat buyumlar va matolarni to'g'ri tanlash, balki yorug'likni mohirona qo'ya bilish ham zarur. Eng asosiysi- qo'yilmada ranglar garmoniyasi, go'zallik, nafis obrazli asar jonlansin. Yorug'lik, rangtasvirdagi rang kabi kompozitsiyaning muhim elementidir. Naturaga tushayotgan yorug'lik natyurmortdagi asosiy kompozitsion markazni bo'rttirib, yorug'likdan hosil bo'lgan soyalar esa, aksincha ikkinchi darajali narsalarni va keskin bo'yoqlar kuchini yumshatadi. Asardagi kompozitsion markazni rang va tus orqali ham ajratish mumkin. Rassom avvalo o'tkir nigohini kompozitsiya markazidagi buyumlarga qaratadi, so'ngra asosiyyiga nisbatan biroz kuchsiz qarama- qarshi narsalarni yoza boshlaydi. XVI--XVII asrlarda gollandiya san'atida natyurmort janri eng yuqari pog'onaga ko'tarildi.



Rassomlar tasvirlashda eng zarur narsalarni, kompozitsiya muvozanatni saqlash uchun qo'yilajak buyumlarga alohida ahamiyat bergenlar. N Asar ustida ishlay borib, buyumlarga tushayotgan yorug'likni, buyumning shaxsiy va tushayotgan soyalarini nozik va mohirona tasvirlaydilar. Tasvirlangan go'zal va betakror natyurmortlarga havas bilan qarab, golland rassomlarining o'tkir nigohi va mohirligidan har qanday kishi hayratga tushadi. Rassomlar natyurmort kompozitsiyalarini turlicha hal etib, ba'zan ochiq havoda ham ishlashni ma'qul ko'radilar. Qo'yilmadagi ranglar ochiq havoda nihoyatda jozibali tovlanib, soyada moviy osmondan zangori, quyosh nuridan esa issiq shu'lalar tushib yaratilayotgan asar kishini o'ziga maftun etadi. Yorug'lik va havo rassom palitrasini siypalab, bo'yoqlarni yanada bor jarangdorligida ko'rsatishga harakat qiladi.

Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

Shunday qilib, natyurmort kompozitsiyasida yorug'lik nafaqat uning mazmunini balki yaxlit asardagi har-bir buyumning o'ziga xos xarakterini to'loqonli ochib berishga yordam beradi. Buyuk italyan rassomi Leonardo do Vinchi "Agar sen shoir bo'lib shakllarni paydo bo'lishini so'zlab yoza olsan, rassom esa yorug'likka shukrona aytib shakllarga bo'yoqlar orqali jon bag'ishlaydi"- deb bejiz aytmagan.

Jamiyatning ma'naviy hayoti qomrovi nihoyatda keng, mazmunan chuqur, shaklan xilma-xildir. Ma'naviy hayot inson aql-idroki va tafakkurining barcha mahsullarini jamiyat tomonidan to'plangan madaniy boyliklarida ifodalangan yutuqlarini, ijtimoiy ong shakllarini, kishilarining g'oyalarini, tasavvurlari, dunyo qarashi, odob-axloqi butun olamni qamrab oladi. Demak, bularning barchasi yosh avlodning to'laqonli shakllanishi va takomil topishida rasm chizish va tasvirlar bilan ishslash ham alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ta'lif-tarbiya yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmanov G'.M. «Kompozitsiya asoslari». T.--2009.
2. Boymetov B. «Qalamtasvir». T. Musiqa.- 2006.
3. Tolipov N. Abdirasilov S. Oripova N. «Rangtasvir». T. Musiqa. 2006.
4. Tolipov N. Imamova S. Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallari. 2015.

